ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ

“ХАЛҚАРО ТУРИЗМ ВА ТУРИЗМ СЕРВИСИ” КАФЕДРАСИ

«ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАБИИЙ ВА ЭТНОГРАФИК РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МУАММОЛАРИ»

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси

М А Т Е Р И А Л Л А Р И

(2019 йил 13-14 ноябр)



САМАРҚАНД – 2019

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ

“ХАЛҚАРО ТУРИЗМ ВА ТУРИЗМ СЕРВИСИ” КАФЕДРАСИ

«ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАБИИЙ ВА ЭТНОГРАФИК РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МУАММОЛАРИ»

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси

МАТЕРИАЛЛАРИ

Конференция тўплами «Ф-1-61. Ўзбекистон туристик-рекреацион салоҳиятини ривожлантиришда минтақавий геоахборот тизимини шакллантириш” номли фундаментал давлат гранти иш режаси асосида тайёрланди

(2019 йил 13-14 ноябр)

САМАРҚАНД – 2019

Пардаев О. М., А. Аблаизов А. ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАБИАТ МИНТАҚАЛАРИДАГИ ХАЛҚАРО ЭКОТУРИЗМ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДАГИ ВАЗИФАЛАР..... 126
Xamitov M., Tuxliyev I.S. MEHMONXONALARNING NOMER FONDINI BOSHQARISHNING TASHKILIY TAMOYILLARI……. 128
Ш.З.Норкулов ТУРИСТИК РАЙОНЛАШТИРИШНИНГ ҲУДУДЛАРДАГИ ТАБИИЙ ВА ЭТНОГРАФИК РЕСУРСЛАРДАН ТЎҒРИ ФОЙДАЛАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ..... 131
Камбаров Ж., Комилжанов Ш., Набиева Ди. ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ТУРИЗМЕ…….. 133

III ШЎЪБА. ГЕОАХБОРОТ ТИЗИМЛАРИ ВА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА ТАБИИЙ ВА ЭТНОГРАФИК РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ

З.И.Усманова, С.Кобулова. ЗНАЧЕНИЕ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ В КОМПЛЕКСНОЙ ОЦЕНКЕ ПРИРОДНЫХ ТУРИСТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ И УСЛОВИЙ……. 137
Z.O.Raximov, O.Z.Xaydarov QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI……. 140
Z.O. Raximov, A.Yu.Talibova TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH MASALALARI..... 142
Alimova M.I., NorkulovaD.Z GEOAXBOROT TIZIMLARI VA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TABIIY VA ETNOGRAFIK RESURSLARDAN VA MEHMON UYLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI..... 144
Абдуллаева З.И. ПРОБЛЕМЫ КАДРОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ ГОСТИНИЦАХ…….. 147
Norkulova D.Z., JomonqulovaF., Qilichova O.Z. TURIZMDA WEB SAYTLARNING AHAMIYATI..... 150
R.G‘. Suyunov, S.B.Sulaymonov, SH.Berdiyorov GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION JARAYONLARNING RIVOJLANISHI…….. 152
Абдувалиев А., Бозорова И. ТАБИИЙ ВА ЭТНОГРАФИК РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШДА ГЕОАХБОРОТ ТИЗИМЛАРИ ВА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ЎРНИ..... 153
Ҳ.Н.Мусаев ТУРИЗМ СОҲАСИ КОРХОНАЛАРИНИ АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВИДАН ЎТКАЗИШДА ФИРИБГАРЛИКНИ АНИҚЛАШ..... 157
Зайналов Ж.Р., Хусанова Д.Ш. ИҚТИСОДИЁТНИ ТАРКИБИЙ ЎЗГАРТИРИШ СТРАТЕГИЯСИ ЗАМИРИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШ..... 159
Мусаева Ш.А., **Усманов Ф.Ш** ТУРИЗМ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИНГ ЎРНИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ..... 161
Навруз-Зода Б.Н ТУРИЗМ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ БАРҚАРОР ИННОВАЦИОН МОДЕЛИ..... 164
АбдуллаевР.А., МусаевҲ.Н, МусаевҲ.Ҳ. ТУРИЗМ МАҲСУЛОТЛАРИ ҲИСОБИ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ..... 168
Расулов З.Ж. РЕАЛИЗАЦИИ ПРИНЦИПОВ ЗАЩИТЫ ПРЕДПРИЯТИЙ И ПРЕДОТВРАЩЕНИЕНЕДОБРОСОВЕСТНЫХ КОНКУРЕНТОВ НА РЫНКЕ УСЛУГ…… 170
Хамракулова О.Д ПРОБЛЕМЫ ТУРИЗМА И ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ…….. 172
Z.O.Raximov, R.G‘. Suyunov, I.O.Umarov TURIZMDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI..... 174
Мусаев Р.М, Багирова Д.Б ВНЕДРЕНИЕ СУБЪЕКТОВ ИНВЕСТИЦИОН-

региональных геоинформационных систем развития туризма будет способствовать решению множества задач.

Z.O. Raximov – SamISI katta o‘qituvchisi i.f.n.,
O.Z.Xaydarov – SamISI o‘qituvchisi.

QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI

Аннотация: *В статье представлена информация о путях и средствах развития агропромышленного комплекса и экотуризма в сельской местности Узбекистана. В то же время был проведен анализ теоретических и практических аспектов альтернативной идентификации доли туристических услуг в современном развитии сельского и сельскохозяйственного Самаркандской области.*

Ключевые слова: *Инноватсия, туризм, агротуризм, экотуризм, сельский туризм, сельская местность, национальный парк.*

Annotation: *The article provides information on ways and means of developing agro-industry and ecotourism in rural areas of Uzbekistan. At the same time, the analysis of theoretical and practical aspects of alternative identification of the share of tourist services in modern development of rural and agriculture of Samarkand region was carried out.*

Key words: *Innovation, tourism, agrotourism, ecotourism, rural tourism, rural areas, national park.*

O‘zbekiston turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega va bu soha yuqori raqobatbardosh hisoblanadi va bozor iqtisodiyotini shakllantirishga yo‘naltirilgan islohotlar jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Mustaqillik e’lon qilinganidan keyin bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish jarayoni doimiy ravishda olib borilmoqda. Barchamizga ma’lumki, jahonning barcha mamlakatlari uchun iqtisodiyotni rivojlantirishning universal modellari mavjud bo‘lib, har bir mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, geografik joylashuv, tabiiy sharoitlari, iqlimi, aholisi, tabiiy resurslar va boshqa omillarni hisobga olgan holda alohida baholanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston noyob, chiroyli fasllari, tabiiy-iqlim sharoitlari, tabiiy resurslari, shuningdek, mehmondo‘st mamlakat hisoblanadi. O‘zbekistonning umumiy maydoni 44413,3 ming gektarni tashkil etadi, shundan 25 million gektar maydon qishloq xo‘jaligi ekinlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda, O‘zbekistonda 7 mingdan ziyod tarixiy-madaniy, arxitektura va arxeologik obektlar UNESCOning Dunyo Merosi ruyxatiga olingan va O‘zbekiston o‘zining turistik potensiyali va arxitektura yodgorlik bo‘yicha dunyoning o‘ntaligiga kiritilgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bu obektlardan 545 tasi arxitektura yodgorliklari, 578 tasi tarixiy ahamiyatga ega, 1457 tasi san’at va shuningdek 5500 tasi arxeologik ahamiyatga ega hisoblanadi. Bundan tashqari, bizning mamlakatimizda shu qatorda 300 ta muzeylar va 1200 yaqin folklorlik san’ati birlashmalari faoliyat yuritmoqda. Bunday salohiyatga qaramay, mamlakatimiz qishloq hududlari iqtisodiyotida turistik xizmatlarni joriy qilish boshqa turizm turlariga qiyoslaganda salmoqli darajada kam. Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishda bir qator masala va muammolar salbiy ta’sir ko‘rsatishda davom etmoqda. Ayniqsa bu shuni anglatadiki, qishloq hududlarida turistik resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish yo‘llari oqilona rejalashtirilmagan.

Aholining moddiy va ma’naviy farovonligini oshirish milliy iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday ekan O‘zbekistonning turizm xizmatlari bozori va uning kelgusi ravnaqi uchun eng muhim muammolar qatorida qishloq joylarida sayyohlik resurslaridan foydalanishning samarali usullarini ta’minlash uchun prognoz ko‘rsatgichlarini ishlab chiqish ilmiy asoslarni aniqlash zarurdir.

Yuqorida aytib o‘tilganlarni hisobga olsak, O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek ushbu sohani rivojlantirish va shakllantirish jarayonida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning yangi bosqichiga o‘tilmoqda.

Agroturizmni doimiy ravishda takomillashtirishni ta’minlash, turizmning boshqa turlarini va mavjud salohiyatidan samarali foydalanishni ta’minlash uchun davlat mulkining turli manbalardan katta miqdorda sarmoyalar, mahalliy va xorijiy investitsiyalar jalb qilinmoqda. Bu tadbirlarning asosiy maqsadi qishloq joylarida sayyohlik resurslarini saqlab qolishdir.

Ekoturizm – O‘zbekistonning turizm sohasini asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki qishloq hududlarida ekoturizm resurslari ma’lum darajada rivojlangan. Muhofaza qilinadigan hududlarning umumiy maydoni 460 ming gektarni tashkil etadi. Biroq, bu joylar ekoturizm maqsadida yetarli darajada foydalanilmaydi. Buning sababi, muhofaza etiladigan hududlar qattiq tizim ostida muhofaza olinganligi va u yerda inson aralashuvi cheklanganligidir. Bundan tashqari, bu hududlarda ekoturlar turistik kompaniyalar tomonidan kam taqdim etilayotganligi hisoblanadi. Inson omili tasirida tabiiy go‘zal joylarning yuqolib ketganligi oqibatida bunday joylarga tashriflar cheklangan va bunday turlar narxi yuqoridir. O‘zbekistonning maydonini muayyan qismini tog‘lar, bog‘lar, tepaliklar, adirlar va cho‘llar egallaydi. Bunday joylarda innovatsion g‘oya sifatida "eko uylar"ni qurish va rivojlantirish mumkin. Bunday uylar orqali ekoturistik safarlarni tashkil etishda bir qancha qulayliklar yaratadi.

Hozirgi vaqtda hukumatimiz tomonidan qishloq hududlarida tarixiy, madaniy va tabiiy resurslarni doimiy rivojlantirish, samarali foydalanishni tashkil etish masalasini O‘zbekistonning barcha viloyatlarida, shu jumladan, Samarqand viloyatida to‘laligicha ta’minlash talab etilmoqda.

Prezidentimiz 2019 yil 5 yanvardagi farmoniga muvofiq 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, o‘sha kuni imozolangan Prezident loyihalari ro‘yxati qabul qilindi. Bu konsepsiya malaktimizda turizmni bir tekis rivojlantirish masalarini tadbiq qilishda, turizmning sohalarini, barcha turlarini hududiy va mintaqaviy rivojlantirish uchun huquqiy-meyoriy asos va ustuvor dastur bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqatai nazardan qishloqlarimizning o‘ziga xos bo‘lgan tabiati, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosi, iqlim xususiyatlaridan turizmda foydalanish haqida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni boshlashimizning vaqti keldi.

Viloyatlarimiz qishloq hududlarida turizmni rivojlantirish hanuzgacha yetarli darajada tahlil qilinmay va o‘rganilmay kelinmoqda. Shu sababli, qishloq joylarida mavjud bo‘lgan turistik resurslaridan samarali foydalanishdagi yangi yo‘nalishlarning nazariy va amaliy jihatlari turizm rivojlanishini tadqiq qilishda juda muhim ahamiyatga egadir.

Samarqand turizm sohasini rivojlantirish uchun eng qulay hududlardan biridir. Turistik destinatsiya terminiga muvofiq, O‘zbekistonning tabiiy va iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan uni boshqarish bo‘yicha viloyat 14 ta tuman va 2 ta shaharga bo‘linib o‘rganiladi. Viloyatning umumiy yer maydoni 16,4 ming km2, aholisining 75% qishloq joylarda yashaydi va viloyatda 118 turistik ob’ekt mavjud. Bu omillar turizmini rivoji uchun yetarli dalillarni beradi. Turizmni rivojlantirish borasida, ayniqsa, diniy salohiyatni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Shuningdek turizm sohasining, tarixiy turizm, agroturizm, ekologik turizm, arxeologik turizm, ekstremal turizm kabi sohalarni rivojlantirish istiqbollari salohiyatiga ega. Viloyatdagi bunday imkoniyat turizm xizmatlari bozorini takomillashtirish qishloqlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Aytib o‘tish lozimki, erkin turistik hududlar tarkibida kichik turistik hududlarni tashkil etish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.

Viloyatdagi erkin turistik hudud qoshida kichik turistik hududlarni tashkil etish orqali ularni innovatsion rivojlanishi uchun ustuvor yo‘nalishlar sifatida quydagilarni ko‘rish mumkin:

- viloyatdagi Nurobod tumanida davolash-sog‘lomlashtirish resurslari yordamida yuqori darajadagi davolash tizimini tashkil etish.
- Urgut tumanida etnografik markazlar, milliy hunarmandchilik markazlari, milliy uylar va turar joy majmualarini tashkil etish.
- Ishtixon tumanida Oqdaryo suv ombori va uning chegaraviy hududida ekstremal turizm turlarini tashkil etish hamda suv bilan bog‘liq animatsion o‘yinlarni ishlab chiqish.
- Toyloq tumanida vino turizmini rivojlantirish choralarini ko‘rish.
- Qo‘shrabot tumanida qishloq turizmi va milliy sport o‘yinlari turlari markazlarini tashkil etish.

- Kattaqo‘rg‘on suv ombori hududida playj turizmini tashkil etish va h.k.

Yuqorida keltirilgan innovatsion tadbirlarni amalga oshirish barcha ko‘ngilochar markazlarni yanada rivojlantirishga, barcha darajadagi byudjetlarga daromadlarni ko‘paytirishga, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatdagi muammolarni hal etish uchun qulay shart sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Qishloq aholisining qishloq turizmini rivojlantirish orqali ish bilan taminlashda xorij davlat dasturlarini bir qismini keltirish maqsadga muvofiqdir:

- qishloqlardagi turistik resurslar mahalliy hokimiyat mulki ekanligi.
- milliy parkga xizmat qiluvchi mahalliy aholidan bo‘lishi.
- o‘z-o‘zini boshqarish va moliyalashtirish tizimi.
- xususiy mulkchiliknini hukmronligi.
- milliy park shiori davlatga xizmat qilishi.
- xalqaro va ichki turizmdan foydalanishga ruxsat berilganligi.

Keltirilganlardan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda, ayniqsa turizm sohasida qishloq turizmini rivojlantirish orqali qishloq aholisini ish bilan taminlashda xorij davlatlarining ilg‘or tajribalaridan foydalanish samarali yunalish hisoblanadi.

Yuqorida o‘rganilganlarni hisobga olgan holda quyidagi xulosalarni keltirib o‘tamiz:

- qishloq turizmini rivojlantirishda innovatsion turistik loyihalarni va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, qishloqlarda turistik hududlarni va destinatsion markazlarni tashkil etish.
- ichki turizmni rivojlantirishda qishloq turizmining menejmenti va marketingini tashkil qilish va zamonaviy talablar bo‘yicha doimo takomillashtirib borish.
- ichki turizmini rivojlantirishda xorij davlatlarining ilg‘or tajribalarini, tavsif va tariflarini, maqsad va vazifalarini o‘rganish va ularni mamlaktimizdagi turistik obektlarda qo‘llash zarurdir.

Z.O. Raximov – SamISI katta o‘qituvchisi i.f.n.,
A.Yu.Talibova – SamISI assistenti.

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH MASALALARI

Аннотация: *В этой статье рассматриваются вопросы инноваций в развитии туризма, инновации в области информационных технологий в повышении ее роли в экономике.*

Ключевые слова: *туризм, экономика, информационные технологии, инновации, система бронирования, рабочее место, гостиница, туроператор, глобальная система распределения (GDS).*

Annotation: *This article deals with the issues of innovation in the development of tourism, information technology innovation in increasing its role in the economy.*

Key words: *tourism, economy, information technology, innovation, booking system, workplace, hotel, tour operator, global distribution system (GDS).*

“Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o‘zi taqozo etmoqda”.

Sh.M. Mirziyoyev

Turizm daromad keltirishi jihatidan neft va avtomobil sanoatidan keyin uchinchi o‘rinda turadi.Turizm sohasi iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo‘lganligi tufayli ko‘pgina davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e’tibor bermoqdalar. Bugungi globallashuv jarayonida qariyib barcha mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta‘siri nafaqat valyuta tushumi, ish o‘rni yaratish,